Registered in Germany **Europa Revue Journal**
ISSN: 1862-6564 **Vol. 6 No. 6 (2026) Published June 16, 2026**

DIALECTICAL CONNECTION BETWEEN ASSESSMENTS AND NORMS

K.T.Saydazimov

Tashkent State Medical University "Social sciences, pedagogy and psychology" associate professor of the department, Doctor of Philosophy (PhD) on philosophical sciences

Abstract

This article analyzes the issue of an important aspect of norms that is different from evaluation. It looks at the processes of forming and changing norms. It also examines the variability of the concepts of "norm" and "evaluation" and their impact on social processes. Additionally, in the argumentative discourse, the life experience of the person doing the evaluation, their approach to the evaluated object, and the issue of relationships in a dialectical connection were considered. The analysis of deviations from norms and their influence on the formation of values and relationships helps in developing practical recommendations for the positive development of moral and social relationships in modern society.

Key words

Social norm, evaluation and assessment, social norms, the connection of norms with values, cultural factors, social processes, deviations from norms, argumentative discourse, 'norm' and 'evaluation' in dialectical connection.

BAHO VA ME'YORLARNING DIALEKTIK ALOQADORLIGI

ДИАЛЕКТИЧЕСКАЯ СВЯЗЬ ОЦЕНОК И НОРМ

K.T.Saydazimov

Toshkent davlat tibbiyot universiteti "Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

https://orcid.org/0000-0002-6161-1652

Annotatsiya. Mazkur maqolada me'yorlarning bahodan farq qiluvchi muhim jihati masalasi tahlil etildi. Normalar baholarni shakllantirishi va o'zgartirishi jarayonlari o'rganiladi. Shuningdek, dialektik aloqadorlikda "me'yor" va "baho" masalalari o'rtasidagi o'zgaruvchanligi hamda ularning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri muhokama

qilingan. Bundan tashqari argumentativ diskursda baholash subyektining hayotiy tajribalari, baholanuvchi obyektga qaysi nuqtai nazardan yondashuvi va munosabat masalasi tahlil etildi. Normalardan og‘ishlar qadriyatlarga qarshi yo‘nalishlar va munosabatlarning shakllanishiga ta’sirini tahlili zamonaviy sharoitda axloqiy va ijtimoiy munosabatlarni jamiyatga ijobiy ravnaqi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy norma, baho va baholash, ijtimoiy normalar, normaning qadriyatlar bilan bog‘liqligi, madaniy omillar, ijtimoiy jarayonlar, normalardan og‘ishlar, argumentativ diskurs, dialektik aloqadorlikda "me’yor" va "baho".

Аннотация. В данной статье проанализирован вопрос о важной стороне норм, отличающейся от оценки. Рассмотрены процессы формирования и изменения норм. Также анализированы изменчивость вопросов «норма» и «оценка», и их влияние на социальные процессы. Кроме этого, в аргументативном дискурсе были рассмотрены жизненный опыт субъекта оценки, его подход к оцениваемому объекту и вопрос отношения в диалектической связи. Анализ отклонений от норм и их влияние на формирование ценностей и отношений служит разработке практических рекомендаций для положительного развития моральных и социальных отношений в современном обществе.

Ключевые слова: Социальная норма, оценка и оценивание, социальные нормы, связь нормы с ценностями, культурные факторы, социальные процессы, отклонения от норм, аргументативный дискурс, «норма» и «оценка» в диалектической связи.

Ma’lumki, ijtimoiy baholar ijtimoiy me’yorlarning shakllanishi va o‘zgarishi uchun asos bo‘ladi. Sokrat dialoglarida voqea hodisalarga nisbatan munosabatni ya’ni baholashni o‘zgartirish orqali tushunchalarga ta’rif beradi. Bu ta’riflar semantikasi normalarni aks ettiradi. Masalan, Platonning «Gorgiy» dialogida Sokrat Kalliklga: «Fikrlarimga rozi bo‘lsang, bu har ikkimizning ishonchli tekshiruvimiz natijasi bo‘ladi va yangidan tekshirishga ehtiyoj bo‘lmaydi. Sening roziliging donolikning yetishmovchiligi yoki o‘ta uyatchanlik yoki yolg‘ondan menga yon bosishing natijasi emas. Chunki sen mening do‘stimsan va bu sening so‘zlaringdir. Demak, sen bilan

mening kelishuvim haqiqatning cho‘qqisidir” - deydi. Bunda ko‘rishimiz mumkinki, Sokrat Kallikl bilan kelishuviga uch xil salbiy baho beradi. To‘rtinchi bahosi kelishuvning shartini ifodalaydi va bu esa norma bolib xizmat qiladi.

Me’yorlarning bahodan farq qiluvchi ikki muhim jihati bor. Birinchidan normalar hamma vaqt kelajakka yo‘naltirilgandir, baholar esa o‘tmish, kelajak va hozirga birdek yo‘naltirilgan bo‘lib, vaqt bilan chegaralanmagan. Ikkinchidan, normalarning obyektlari va subyektlari insonlar, ularning harakatlari yoki vaziyatlar bo‘lsa, baho hech bir cheklovsiz barcha obyektlarga taalluqlidir.[1]

Huddi shuningdek, normalar baholarni shakllantirishi va o‘zgartirishi mumkin. Masalan, kelishilgan yoki o‘rnatilgan qoidalar norma hisoblanadi. Normalarning buzilishi yoki avval ma’lum bo‘lmagan holatlar tufayli normalarning nuqsonli bo‘lishi ularga berilgan bahoning o‘zgarishiga va yangi baholarning shakllanishiga olib keladi. Turli sohalarga oid huquqiy normativ xujjatlarning vaqt o‘tib o‘zgartirilishi (qo‘shimchalar kiritilishi) yoki bekor qilinib, yangisining qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo‘ladi. Baho va normalarning o‘zgarishiga subyektiv va obyektiv omillar ta’sir ko‘rsatar ekan, subyektiv omillarga kognitiv agent dunyoqarashining o‘zgarishi, bilim darajasi, shaxsiy tajribasining ortishi, his tuyg‘ularining o‘zgarishi va milliy mentalitetning ta’sirini kiritish mumkin. Obyektiv omillarga ijtimoiy voqelikdagi insonga bog‘liq bo‘lmagan barcha holatlarni: tarixiy davr, boshqaruv shakli, iqtisodiy-siyosiy sharoit, jamiyatning ma’naviy taraqqiyot darajasi va b.larni ko‘rsatish mumkin.

Baholash subyekti sifatida yakka shaxs, guruh, jamoa, ijtimoiy institutlar, jamiyatni ko‘ramiz. Argumentativ diskursda baholash subyektining hayotiy tajribalari, baholanuvchi obyektga qaysi nuqtai nazardan yondashuvi va munosabat bildirishi, ijtimoiy tajribasi bahoda o‘z aksini topadi. Shuningdek, baho yakka shaxsning ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi, olgan tarbiyasi, ma’lumoti, kasbi, yashash tarzi, iste’dodi kabilar bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘ladi.[2]

O‘zbek adabiyotshunos olimi, dramaturg Izzat Sultonning “Imon” dramasini tahlil qilib, nazariy xulosalarimizni asoslashga harakat qilamiz. Asarning qisqacha mazmuni

[1] Ивин А. Логика оценок и норм.Философские, методологические и прикладные аспекты. – Москва: Проспект, 2016. С.198.
[2] B.Umarov. Kompetentligini baholashda diskurs tahlil. Assesment in teaching foreign languages: Achievements, challenges and solutions. Inernational conference. 2021. B. 472

shunday: Professor Komilovning o‘g‘li Orif o‘zi ishlayotgan institutning marhum rahbari Yusupovning nashr etilmagan qo‘lyozmasining bir qismidan yashirincha foydalanib nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Bu ish ilmiy rahbari Sanjarovning taklifi bilan, uning yordamida amalga oshadi. Yusupovning qo‘lyozmasi yo‘qolgani haqida gazetada maqola e’lon qilinadi va uni Sanjarov olganligi aytiladi. Bu masala hammada qiziqish uyg‘otib, muhokamalarga sabab bo‘ladi. Orif va uning rahbari Sanjarov havotirga tushib qoladilar. Sir oshkor bo‘lib, Orif otasiga Yusupovning qo‘lyozmasi unda ekanligini aytishga majbur bo‘ladi. Sanjarov javobgarlikdan qo‘rqib, bu ishni yopishga harakat qiladi va Komilovning oila a’zolarini mansabidan ajralish, sharmanda bo‘lish mumkinligi bilan qo‘rqitmoqchi bo‘ladi. Lekin ular Sanjarovning qilmishi uchun javob berishi kerakligini qat’iy talab qiladilar. Orif qo‘lyozmadan qutilmoqchi bo‘ladi. Qo‘lyozmani Orifning xotini Komilovga topshiradi. Siri oshkor bo‘lgan Orif otasidan, ilmiy darajasini saqlab qolish uchun, qo‘lyozmaning o‘zi ishlatgan qismini olib qolib, qolganini topshirishiga ruxsat berishini so‘raydi. Komilov o‘g‘lining iltimosini rad etadi va ilmiy unvonini bekor qilinishini ma’lum qiladi.[3]

Asarda bir hodisaga (Orifning ilmiy ishining plagiat ekanligi) Komilovning, qizi Oyshaning, Sanjarovning va o‘g‘li Orifning munosabati (bahosi) va bu hodisaning mavjud normalarga qay darajada mos kelishi personajlarning nutqlarida yaqqol ifodalangan.

Komilov ilmda haqqoniylik, xalollik tarafdori. U o‘z prinsiplarini o‘zgartirmaydi va o‘g‘lini yaxshi ko‘rsa ham, uning qilgan ishini qoralaydi va ilmiy unvonini bekor qilish kerak deb, hisoblaydi. U ilmda erishgan muvaffaqiyatlarining bosh sababini imonining butunligi va sofligida deb, biladi.

Sanjarov ilmda va umuman hayotda nahang bo‘lib yashash kerak degan prinsipga asoslanadi. Uning uchun xalol va haromning farqi yo‘q. U o‘z manfaati uchun qonunlarga qarshi borishdan toymaydi.

Orif irodasi sust, qilgan ishining qonunga va insoniylikka xilof ekanligini bilsa ham, manfaatlaridan voz kecholmaydi. Shu sabab, onasining kasaliga davo bo‘ladigan dorini o‘z vaqtida aytmaydi.

[3] Izzat Sulton. Imon.// G’afur G’ulom nomidagi adabiet va san’at nashriyoti. Toshkent. 1971

Oysha otasi Komilov kabi haqqoniylik, xalollik tarafdori. U ukasi Orifni yaxshi ko‘rsa ham, ilmiy kengash raisi va institut direktori sifatida ukasining aybini berkitmasdan qonunning ustivorligini himoya qiladi. Bu tahlil bizga qadriyatlar, baho va normalarning qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishini bildiradi. Tahlil yakunlarini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

Umuminsoniy qadriyatlar	**Shaxsiy qadriyatlar**	**Baholar**	**me’yorlar**	**Qaror**
+	+	**1**	**1**	**1**
+	_	**1**	**0**	***1/2***
_	+	**0**	**1**	***1/2***
_	_	**0**	**0**	**0**

(1 -chin, to‘g‘ri; 0- yolg‘on, noto‘g‘ri; ½ - noaniq; + -moslik, - -mos kelmaslik)

Demak, 1. Agar subyektning shaxsiy va umuminsoniy qadriyatlari bir biriga mos bo‘lsa, baholashi chin, normalarga mos va qarori to‘g‘ri bo‘ladi; 2. Agar subyekt shaxsiy qadriyatlaridan umuminsoniy qadriyatlarni ustun qo‘ysa, bahosi to‘g‘ri bo‘lishi, lekin normalarga mos kelmasligi mumkin. 3. Agar subyekt umuminsoniy qadriyatlardan shaxsiy qadriyatlarini ustun qo‘ysa, baholashi noto‘g‘ri bo‘lsa ham, normalarga mos kelishi mumkin. 4. Agar umuminsoniy va shaxsiy qadriyatlarga befarqlik bo‘lsa, unda qolganlari ham befarqlik natijasi bo‘ladi. Bunday holatda subyekt manipulyatsiya obyektiga aylanadi va beqarorlik kuzatiladi.

Aytish mumkinki, qadriyatlarning o‘zgarishi baholarning o‘zgarishiga, sabab bo‘ladi va aksincha baholarning o‘zgarishi qadriyatlarning o‘zgarishiga olib keladi. Bular o‘z navbatida normalarning almashinishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunga “overton oynasi” yoki “yo‘q qilish texnologiyasi”ni misol qilish mumkin. Bu texnologiyani g‘oyasi XX-asrning 80-yillarida amerikalik sotsiolog olim Jozef Overton tomonidan yaratilgan va uning nomi bilan ataladi. “Overton oynasi” ga ko‘ra istalgan narsani, aql bovar qilmaydigan narsa va hodisalarni ham qonuniylashtirish va ba’zi millatlar uchun “qadriyat” darajasiga olib chiqish mumkin. Overtonning bu texnologiyasi voqea va hodisalarga beriladigan bahoni o‘zgartirish orqali, bu bahoga nisbatan jamoatchilik fikrini shakllantirish, tarafdorlarini ko‘paytirish va “yangi qadriyat” ni

qonunlashtirishdan iboratdir. Yevropada bir jinsli nikohlarning qonuniylashtirilishi shunday texnologiyaning natijasidir. Shavqat hissini uyg‘otish va hayrixohlarning safini kengaytirish bahoni qayta ko‘rib chiqishga undash ham bu texnologiyaning usullardandir. Bu usul davlatlarni urushlarsiz egallash, uni ichdan yemirish kabi oqibatlarga olib keladi. Zamonaviy jamiyatda normativ qadriyatlarning uch bosqichli pog‘onasini ajratish mumkin. Birinchi bosqich umumbashariy miqyosdagi me’yoriy qadriyatlardan iborat bo‘lib, ularga axloqiy imperativlar, umuminsoniy shaxslararo normalar, gumanistik qadriyatlar, obyektiv huquqiy tamoyillar va qadriyatlar va b. kiradi.

Ikkinchi bosqich ijtimoiy tizimlarning me’yoriy qadriyatlari bo‘lgan axloqiy ko‘rsatmalar, qonunlar, siyosiy qadriyatlar va normalar va b. mavjudligida aks etadi. Uchinchi bosqich tanlangan me’yoriy qadriyatlardan iborat bo‘lib, unga estetik-me’yoriy qadriyatlar, individual dunyoqarash ko‘rsatmalari, munosabatlari va b. ni kiritish mumkin. Universal tarqalgan me’yoriy qadriyatlar inson uchun ijtimoiy voqelik obyektlarining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Aks-qadriyatlarning ijtimoiy normalarga ta’siri normalardan og‘ishlarning mavjudligida aks etadi. Normalardan og‘ishlar qadriyatlarga qarshi yo‘nalishlar va munosabatlarning rivojlanishiga yordam beradi, bu esa zamonaviy sharoitda axloqiy va ijtimoiy nigilizmning tarqalishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ивин А. Логика оценок и норм. Философские, методологические и прикладные аспекты. – Москва: Проспект, 2016. С.198.

2. Куйлиев Б. Т. Политическое манипулирование в системе понятий политической науки: анализ и вызовы //scholar. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 183-189.

3. B.Umarov. Kompetentligini baholashda diskurs tahlil. Assesment in teaching foreign languages: Achievements, challenges and solutions. Inernational conference. 2021. B. 472

4. Saydazimov K. BAHOLASH VA NORMALAR MANTIG ‘IDA AXLOQIY QADRIYATLAR //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – С. 43-43.

5. Куйлиев Б. Т. Политическое манипулирование в средствах массовой информации: основные методы и инструменты //Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 32-34.

6. Сайдазимов К. Т., Хайдаров Х. Ф. Специфика социального закона //Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2015. – Т. 1. – №. 3-4. – С. 165-168.

7. Saydazimov K. T. The Role of Communicative Modal Categories in the Expression of Logical Value //TJE-Tematics journal of Education ISSN. – 2021. – С. 2249-9822.

8. Куйлиев Б. Т. Скрытные методы манипуляции в обществе: анализ применения в политике, рекламе и других сферах общественной жизни //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 57-62.